



EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

¹Hayitboyeva Dilnoza Ne'mat qizi

O'zMU talabasi

hayitboyeva03@gmail.com

97-120-66-61

²Shahlo Shaxobiddinova Muhammad qizi

Ilmiy rahbar: O'zMU o'qituvchisi

shakhlo.shakhobiddinova.95@mail.ru

+998900446687

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7981758>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2023

Accepted: 28th May 2023

Online: 29th May 2023

KEY WORDS

Ekoturizm, atrof-muhit, ekotizim, ekologik muammolar, tabiiy hudud, barqaror turizm, flora va fauna, tabiiy resurs.

ABSTRACT

Mazkur maqolada yangi fan sohasi, ta'lim yo'nalishi hamda iqtisodiyot tarmog'i bo'lgan Ekoturizmning nazariy va amaliy asoslariga oid ma'lumotlarga alohida to'xtalib o'tildi. Unda ekoturizm obykti, predmeti, tushunchasi, kelib chiqish tarixi va uning fan sifatidagi maqsadi haqida fikr va mulohazalar bildirib o'tilgan.

Bugungi kunda kompyuter, informatika, huquq, davlat kabi tushunchalar qatorida eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri bu ekologiya atamasidir. Ekologiya o'zi nima? An'anaviy izohlarga ko'ra, Ekologiya — o'zaro organizmlar o'rtasida va ularning yashash muhiti orasida voqe bo'ladigan o'zaro munosabatlar haqidagi fandır. Bu ma'no uning grekcha atamasidan kelib chiqqan bo'lib, «oikos» — uy, yashash joyi, yashash muhiti, «logos» — ta'limot degan tushunchani anglatadi. Ekologiyani birinchi bo'lib nemis tabiatshunos olimi Ernest Gekkel 1866-yilda «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» degan kitobi orqali fanga kiritgan.

Ekologiya XIX asrning ikkinchi yarmida biologiya fanlari tizimiga kirgan edi. Chunki u tirik organizmlar haqidagi fan tariqasida birinchi bo'lib biologlar tomonidan taklif etilgan. Lekin asrlar davomida, fanlar va bilimlar rivojlangani sari ekologiya nafaqat mustaqil fan sohasiga, balki fanlar tizimiga aylanib ketdi. Hozirgi kunda, mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 80 dan ziyod ekologik fanlar mavjud bo'lib, ulardan biri ekologik turizmdir.

"Ekoturizm" atamasi 1983-yilda meksikalik ekolog Ektor Ceballos-Laskurain (ispancha Hector Ceballos-Laskurain) tomonidan konferentsiyalardan birida rasmiy ravishda ishlatilgan. U o'sha paytda ekoturizm atamasiga quyidagicha izoh bergan: "Ekoturizm "tabiatdan (va unda mavjud bo'lgan har qanday madaniy xususiyatlardan – o'tmishdagi va hozirgidan) bahramand bo'lish va qadrlash maqsadida nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik sayohat qilsa va tashrif buyursa bo'ladigan va eng muhimi bu orqali tabiatni muhofaza qilishga yordam beradigan va mezbon aholi uchun foydali turizm." U dam olish va ekologiya o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini aks ettirdi va bu orqali katta shuhrat qozondi.

Ekoturizm tabiiy turizm infrastrukturasining ajralmas qismidir. "Ekoturizm" tushunchasi qo'riqxonalar zonalarini va tabiiy parklarning hozirgi zamonaviy faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Tor ma'noda ekoturizm — kishilarning tirik organizmlar (jumladan, insonlar) yashaydigan muhitga sayohat qilishlarini anglatadi, keng ma'noda ekoturizm — shaxslarning



doimiy yashash joylarida dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashtirish, ma'rifiy ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda atrof-muhitga yoki muayyan tabiiy obyektlarga ekologik maqsadlardagi sayohatlari ma'nosi tushuniladi.

Jahonda bu sayohat turining jadal o'sishiga sabab faqat atrof -muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki mashhur xordiq chiqarish joylari-tog' bag'ridagi kurortlar, iliq dengizlarning qirg'oqlari, tekisliklar va o'rmonzorlarning borgan sari ko'proq o'zlashtirilayotganligi hamdir. Ba'zi hollarda, ekoturizm atamasi o'miga boshqa atamalar, ya'ni tabiiy turizm, barqaror turizm, yashil turizm, "ma'suliyatli" turizm va xayriya turizmi kabi atamalarni qo'llashadi. Turizmning bu turli xillari uchun ba'zi unsurlar bir xil bo'lsa ham bu atamalar bir-birining sinonimi hisoblanmaydi va biri ikkinchisining o'mini egallay olmaydi, chunki bularning har biri alohida ma'no-mazmun kasb etadi. Misol uchun, barqaror turizm yashil turizm, tabiat turizmi, qishloq turizmi, agroturizm va ekologik turizm kabi turizm yo'nalishlarini birlashtirib turuvchi katta bir soha hisoblanadi. Ko'pchilik aslida bitta deb hisoblaydigan ekologik va tabiat turizmi o'rtasida ham katta tafovut mavjud, ekologik turizmda atrof-muhit va unda mavjud bo'lgan hayvonot olamiga ziyon bermagan holda hordiq olish mumkin bo'lsa, tabiat turizmida turistlar hech qanday qonun-qoidalarga bo'ysunmagan holida hayvonlarni ovlash orqali hordiq chiqarishlari mumkin.

Ekoturizm turizmning boshqa turi kabi ekologik barqaror bo'lishi, sayyohlarga zavq-shavq baxsh etishi va shu bilan birga mahalliy aholiga daromad keltirishi lozim. Bundan tashqari, tabiiy va madaniy muhitga "mos tushishi" ya'ni hajmi va xili landshaftning ko'lami va xarakteriga, mahalliy aholining urf-odatlariga to'g'ri kelishi kerak.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro Ittifoqining ta'rifiga ko'ra, "ekologik turizm yoki ekoturizm- tabiat-muhitga nisbatan ma'suliyat bilan sayohat qilish, tabiat hududlariga ziyon yetkazmagan holda o'rganish, hamda tabiatning betakror jalb etuvchi joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga ko'maklashadi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir etadi, mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi."

Yovvoyi tabiat umumjahon jamg'armasi-"Ekoturizm-nisbatan tabiatga ziyon yetkazilmagan hududlarga sayohat, madaniy-etnografik xususiyatlari haqida tasavvur olish maqsadida, ekoturizmning butunligini buzmaganda, shunday iqtisodiy sharoitlar yaratadiki, unda tabiatni muhofaza qilish mumkin bo'ladi va shu bilan birga, tabiiy resurslar mahalliy xalqqa foyda keltiradi, - deb ta'rif beradi. (Ekologiya xabamomasi Toshkent. 2007. N6. 8-bet)

Bu ta'riflar faqat juz'iy jihatdan bir-birlaridan farq qilsada, ularning asosiy g'oya va xulosalari negizida tabiatni, o'simlik va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish, shu maqsadda muhofaza etiladigan hududlar, milliy tabiiy bog'lar tashkil etish va ularning flora va fauna olamini boyitishni nazarda tutadilar.

Rossiyalik mutaxassislar I. Zorin va V. Kvartalnov ekoturizm tushunchasini ikki shaklda berishadi: birinchi shakl-ekoturizm "yovvoyi" tabiatdan turistlarning turishi va sayyohat qilish muhiti sifatida bilvosita foydalanishga, lekin bunda turning barcha komponentlariga ekologik, texnologik texnologiyalarni joriy qilishga yo'naltirilgan turizm. Ikkinchi shakli-ekoturizm sayohat bilan tabiatga ekologik jihatdan yondoshuvining uyg'unlashuvi deb



qaraladi. U yangi landshaftlar bilan tanishuv quvonchi hamda flora va fauna namunalarini o'rganish lazzatini ularni muhofaza qilish imkoniyati bilan uyg'unlashtiradi deb hisoblangan.

"Ekologik turizm" tushunchasi chuqurroq mazmunga ega. Zorin va V. Kvartalnov o'zaro bog'langan "ekologiya", "ekotizim", "ekologik sayyohat etikasi" kabi tushunchalar sistemasini taklif qilishadi.

Ekotizim- ekologiyada asosiy o'rin egallovchi birlik hisoblanadi, chunki unga tirik organizmlar ham, o'lik tabiat ham kiradi. Har turga kiruvchi birgalikda yashovchi organizmlar va ularning yashash shart-sharoitlari ekologik tizim deb hisoblanadi. Yer kurrasida cho'llar, o'rmonlar, o'tloqzor yoki suv havzalari ekotizimga misol bo'la oladi.

Va oxirida berib o'tilgan "ekologik sayohat etikasi" tushunchasi ham alohida ahamiyatga molik. Uni jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlasak bo'ladi.

Ekoturizmning asosiy resurslari sifatida qo'riqxonalar, mahalliy va tabiiy parklar, noyob va oddiy landshaftlar ko'zda tutiladi. Shu bilan birga, ushbu turizm turi nafaqat tabiat, atrof-muhitni himoya qilish, balki ekotizimlarni saqlab qolish, mahalliy-aholining manfaatlarini himoya qilishga asoslanadi.

Ekologik muammolarni hal etib borishning yana bir o'ziga xos jihati, ekologik turizmni rivojlantirish orqali aholining ekologik ongi va madaniyatini ko'tarish imkoni paydo bo'ladi. Go'zal va betakror tabiiy atrof-muhit turistlarning nafaqat "asosiy tashrifi qog'ozi", balki yashash makoni ekanligini anglagan kishi atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan ehtiyotkorona va tejamkorona foydalanish, buzilganlarini qayta tiklash bugungi va kelajak avlodlar uchun qanchalik zarur ekanligini biladi va ongli ravishda uni asrab-avaylashga harakat qiladi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning ushbu so'zlarini keltirishimiz o'rinli bo'ladi:

«Bugun, XXI asr bo'sag'asida ekologik xavfsizlik, inson bilan tabiat munosabatlarini to'g'ri yo'lga solish muammolari har qachongidan ham dolzarb masala bo'lib turibdi. Zero, bu muammoning yechilishi barcha xalqlarning manfaatlariga daxldordir, jahon sivilizatsiyasining buguni va kelajagi ko'p jihatdan shunga bog'liqdir». (I.A. Karimovning. YUNESKO Ijroiya Kengashi 155-sessiyasining yakunlovchi majlisida 1998-yil 6-noyabrda so'zlagan nutqidan // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. — T.: «O'zbekiston», 1999. 193—206-

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, ekologik turizm yo'nalishi insoniyat oldidagi ekologik inqirozning oldini olish, insoniyatning barqaror rivojlanishi va yashab qolishi uchun, sayyoramiz tabiati va uning resurslarini saqlab qolishdagi najot yo'llarini axtarish zaminida shakllanib, rivojlanib bormoqda. Insoniyat oldida turgan global ekologik muammolarni insoniyatning o'zi bartaraf etishi kerak va bartaraf etishga majbur. Shu nuqtayi nazardan ham, mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish masalalarini o'z vaqtida hal qilishimiz orqali ham xalqaro ekologik inqirozlarning oldini olishga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

References:

1. Храбовченко В.В. Экологический туризм



2. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм : сущность, тенденции и стратегия развития . — Т.: « O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006.
3. Бочкарёва Т.В. Экотуризм : анализ существующего международного опыта та. — М ., 2003.
4. Asqar Nig'matov, Nigora Shomurotova - Ekoturizm asoslari Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma
5. Hamidov O.H. Norchayev A.N - Ekoturizm darslik
6. Иброимов, Ш. И. Ў., & Болтаев, М. Ж. (2020). Ўзбекистон тоғ-водийларининг экотуристик имкониятлари ва улардан фойдаланиш. Academic research in educational sciences.
7. Ibroimov, S., & Madaminova, M. (2020). Maktablarda geografiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash. Academic research in educational sciences.
8. Ekologiya xabamomasi Toshkent. 2007.
9. Charvolin F. L'environnement en 1970 ou les préalables à la création d'un ministère.
10. MICOUD A. La dynamique des associations de nature et d'environnement, 1999.
11. www.bashexpo.ru
12. www.interunion.ru